

ISSN 2524-0986



АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

ЖУРНАЛ

Выпуск 12(44)
Часть 3

Переяслав-Хмельницкий
2018



Ибраимова Женисгуль Жалгасбаевна, Исмадияр Зарина, Ыбыраймхан Ұлжалғас, (Қарағанда, Қазақстан)	
ТІЛ БІЛІМІНДЕГІ СӨЙЛЕМГЕ БАЙЛАНЫСТЫ БАҒЫТТАР.....	68
Ибраимова Женисгуль Жалгасбаевна, Орынбасарова Ансат, Ергали Камила (Қарағанда, Қазақстан)	
АЙРЫҚША ҚҰРЫЛЫМДЫ СӨЙЛЕМДЕРГЕ БАЙЛАНЫСТЫ ТЕРМИН ҚОЛДАНУ МӘСЕЛЕСІНЕН.....	72
Қабанов М. Ш., Смаилова А. Ш. (Қарағанды, Қазақстан)	
ПОЭЗИЯДАҒЫ СӨЙЛЕМДЕР БАЙЛАНЫСЫ.....	75
Кусенбаева Бакитжан Орынбасаровна (Қарағанды, Қазақстан)	
«ӨЛІМ» КОНЦЕПТІСІНІҢ ӨЛЕМНІҢ ТІЛДІК БЕЙНЕСІНДЕГІ КӨРІНІСІ.....	82
Логиш Сергей Васильевич (Минск, Беларусь)	
О НЕКОТОРЫХ ТЕНДЕНЦИЯХ В СОВРЕМЕННОМ ИТАЛЬЯНСКОМ ЯЗЫКЕ.....	85
Сугоняко Юлія Олександрівна (Глухів, Україна)	
СПЕЦИФІКА ВІДТВОРЕННЯ ОБРАЗУ УКРАЇНИ У СУЧАСНІЙ ПОЕЗІЇ Д. ПАВЛИЧКА.....	90
Арсланбекова Насыйкат Эркинбаевна, Дарбанов Буркутбай Ерматович (Джалал-Абад, Кыргызстан)	
ЛЕКСИЧЕСКАЯ ВЕРБАЛИЗАЦИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО КОНЦЕПТА ЖОУ/РАДОСТЬ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ УИЛЬЯМА ГОЛДИНГА «THE SPIRE».....	95
Dr. Fan Jieping, Kostenko Gavriil Dmitrievich (Zhejiang, China)	
CERTAIN FEATURES OF CODIFICATION OF CHINESE TEXTS AS AN ELEMENT OF A SOCIAL AND POLITICAL RESEARCH THROUGH LINGUISTIC ANALYZE, PERFORMED WITH THE APPLICATION OF MATHEMATICAL-STATISTICAL METHODS.....	99
Sapayeva Feruza Davlatovna (Nukus, Uzbekistan)	
NAVOI TRADITIONS IN MAKHTUMKULI WORKS.....	107
Фунікова Тетяна Вікторівна (Харків, Україна)	
ЕВОЛЮЦІЯ ПАРАДИГМИ РОДОВОГО ВІДМІНКА ОДНИНИ ІМЕННИКІВ ЧОЛОВІЧОГО РОДУ В УКРАЇНСЬКІЙ ЛІТЕРАТУРНІЙ МОВІ XVII СТ. (НА МАТЕРІАЛІ «СІНОПСІСУ» ТА «ХРОНІКИ» Ф. СОФОНОВИЧА).....	112
Хуат Айтолкын (Қарағанды, Қазақстан)	
ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ БЕЙВЕРБАЛДЫ АМАЛДАР.....	118
Шахина С. Ж., Ахметжанова Ж. Б., Ельшибекова Н. Х. (Қарағанды, Қазақстан)	
ӨТІРІК ӨЛЕҢДЕРДІҢ ҚАЛЫПТАСУ ДӨСТҮРІ.....	122
Ro`zimbayev Sarvar Saparbayevich, Saparova Surayyo Baxtiyorovna (Urganch, O'zbekiston)	
QO'SHMA GAPLARNI NAZARIY O'RGANISH BORASIDAGI MUAMMOLAR.....	128

УДК 821

Ro`zimbayev Sarvar Saparbayevich, Saparova Surayyo Baxtiyorovna
Urganch Davlat Universiteti
(Urganch, O'zbekiston)

QO'SHMA GAPLARNI NAZARIY O'RGANISH BORASIDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida qo'shma gaplar tasnifi va miqdori bo'yicha mavjud tafovutlar darslik va o'quv qo'llanmalar asosida izohlangan va muallifning yakuniy xulosalari ifodalangan.

Kalit so'zlar. Qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, murakkab qo'shma gap.

Аннотация. В данной статье на основе учебников и учебных пособий разъясняются существующие вариации классификации и количества совместных предложений на узбекском языке, а также высказываются окончательные выводы автора.

Ключевые слова. Составное предложение, бессоюзное сложное предложение, сложносочиненное предложение, сложноподчиненное предложение, составное сложное предложение.

Annotation. This article explains the existing variations of the classification and the number of joint proposals in the Uzbek language on the basis of textbooks and teaching AIDS, as well as the final conclusions of the author.

Key words. Compound sentence, union-free complex sentence, compound sentence, compound complex sentence.

O'zbek tilshunoslari tomonidan qo'shma gap ancha ko'p o'rganilgan. O'zbek tilshunoslari A. G'ulomov, M. Asqarova, A. Nurmonov, N. Mahmudov, R. Sayfullayeva bu sohada katta ishlar olib borganlar.

Qo'shma gapga ta'rif berilayotganda olimlardan ayrimlari ega va kesimlar soni haqida, ba'zilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar soni, ayrimlari esa bu ikki holatni birlashtiradilar. Qo'shma gapga ta'rif berilar ekan, ikki va undan ortiq sintaktik konstruksiyalarning struktur va semantik birligi hamda har bir konstruksiyaning predikativ markazi mavjudligiga ahamiyat beriladi. Qo'shma gaplar tobe qismlarining o'zaro bog'lanish usullari, qo'shma gapning ichki bo'linishlari o'zbek va boshqa tillar grammatikalarida ham deyarli bir xil.

Ularga berilgan ta'riflarda, talqin va tasnifi asoslarida ham o'xshashlik mavjud. Bu masala o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiq etilgan. O'zbek tili sintaksisini o'rganish taraqqiyotida G'. Abdurahmonov, M. Asqarova, N. Mahmudov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev, R. Sayfullayevalarning ishlarida qo'shma gap haqidagi ta'limot ishlab chiqildi. Qo'shma gap masalasi o'zbek tilshunosligida birinchi marta ilmiy asosda G'. Abdurahmonov tomonidan chuqur o'rganildi. Qo'shma va sodda gaplarning o'zaro munosabati, farqlari, qo'shma gapning turlari, har bir turning umumiy, xususiy jihatlari atroflicha tahlil qilinadi.

Qo'shma gap haqida fikr yuritar ekanmiz, G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.G'ulomovlarning ega markazida turgan sintaktik tahlillarida yana quyidagi hal qiluvchi holatlarni qayd etib o'tish lozim:

1. Qo'shma gap bo'lishi uchun gapda ikki va undan ortiq ega-kesim markazi bo'lmog'i lozim.

2. "Bog'langan" tushunchasi asosida teng bog'lovchi, ya'ni "bog'lovchi turkumidagi teng bog'lovchi turiga oid yordamchi so'z bor" mazmunida tushuniladi.

3. Ergash gapli qo'shma gaplarning "ergash" gapining turini belgilashda mazmun-vazifa omiliga tayaniladi.

Qo'shma gap ichki turlariga baho berishda ham e'tirozli tomonlar bor. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik sifatida yaratilgan N. Mahmudovning ona tili darsligida qo'shma gaplarning quyidagi turlari ko'rsatiladi(1,19):

1. Bog'langan qo'shma gaplar;
2. Ergashgan qo'shma gaplar;
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Bundan tashqari, darslikda qo'shma gapning ko'chirma gapli qo'shma gap turi ham borligi ta'kidlanadi(1.75-76).

Qo'shma gap yuzasidan darslik va o'quv qo'llanmalarni qiyosan o'rganar ekanmiz, ularda o'zaro o'xshash va farqli tomonlari borligining guvohi bo'lamiz. Xususan, kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan "Ona tili va adabiyot" darsligida qo'shma gaplarning bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gap, ko'chirma gapli qo'shma gapdan tashqari, qo'shma gapning murakkab qo'shma gap turi borligi ko'rsatiladi(2.109). Qo'shma gapning bu turi turli bog'lovchi vositalar yordamida o'zaro bog'langan uchta va undan ortiq gaplardan tashkil topishi aytilib, o'z navbatida tuzilishiga ko'ra bu turning o'zi ham

1. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap;
2. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap;
3. Aralash murakkab qo'shma gap;
4. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.

kabi guruhlardan tarkib topganligi e'tirof etiladi (2.109-110).

Akademik litseyning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi talqiniga to'xtalsak, ushbu darslikda yuqoridagi darslikdan farqli ravishda, qo'shma gapning turlari haqida aytiladi-yu, uning murakkab qo'shma gap turining borligi haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi. (3. 517) Darsliklardagi bu tafovutlar o'quvchilarda bir qator fikriy chalkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin. A.Nurmonov boshchiligidagi bir qator tilshunolar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida qo'shma gaplar haqida mualliflar tomonidan bildirilgan fikr biroz mavhumlik kasb etmoqda. Qizig'i shundaki, murakkab qo'shma gap turi borligi inobatga olinmagan ekan, *Kishilarning huquqiy ongi yuksalsa, har kim o'z haq-huquqini bilsa va himoya qila olsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi*, (2. 109) kabi strukturaga ega bo'lgan gaplar qo'shma gapning qaysi turiga kiritilgan bo'lardi?

Qo'shma gaplarni turlarga ajratish borasida darslik va qo'llanmalardagi farqlar yuzasidan shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bizningcha, qo'shma gapning murakkab qo'shma gap turini ham maktab darsliklariga kiritish va u haqda o'quvchilarda ko'nikma hosil qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bu orqali o'quvchida *Kishilarning huquqiy ongi yuksalsa, har kim o'z haq-huquqini bilsa va himoya qila olsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi*, kabi strukturaga ega bo'lgan boshqa gaplar yuzasidan ham paydo bo'ladigan ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga aloqadorligi haqidagi savollarning kelib chiqishi bartaraf etilardi.

O'zbek tilshunosligida faqat qo'shma gaplarni turlarga ajratish borasida

emas, balki ularni ichki guruhlarga muvofiqlashtirish borasida, qolaversa, qo'shma gap deya talqin qilinadigan ayrim sodda yoyiq gaplar xususida ham bir qator muammoli vaziyatlar mavjud. Bu borada qo'shma gapning ichki talqiniga to'xtalar ekanmiz, bunda ham anchagina qarama-qarshi fikrlar kuzatiladi. Chunonchi, ergash gapli qo'shma gap turlari bir-birlari bilan qorishtirilib tahlil qilinadi. Shunday qo'shma gaplar borki, ularga turli tomondan yondashsang, turli xil qo'shma gap kelib chiqadi. Ana shunday qo'shma gaplarga ba'zan yuzaki yondashib, qo'shma gapning bir turini zo'rma-zo'raki boshqa turiga qo'shib qo'yamiz. Xuddi shuningdek, ba'zi bir yoyiq bo'laklarni ham ergash gap deb sanayveramiz. Bu holat, ko'pincha, ravish ergash gapli qo'shma gaplarda uchraydi. Bunday holatlar haqida bildirilgan fikrlarni biz o'quv qo'llanmalarda ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Sh.Rahmatullayevning "Hozirgi adabiy o'zbek tili" qo'llanmasi fikrimiz isbotidir.

Qo'llanmada o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilar ekan, qo'shma gap hisoblanib kelinayotgan ayrim gaplarning birinchisining kesimi **-b** ravishdoshi shaklida ishlatilishi mumkinligi aytiladi: *Bahor kelib, tabiat jonlandi* kabi (4. 392). Xuddi shunday holat uyushiq kesimli gaplarda ham mavjudligi o'z o'rnida ta'kidlanadi. Bunday ishlatishda birinchi qism kesimi shaxs-son, zamon ma'nosini ifodalash jihatidan betaraf bo'ladi, uning bunday ma'nolari ikkinchi qism kesimi asosida belgilanadi. Shaxs-son, zamon ma'nolarining betaraflashuviga qaramay **-b** ravishdoshi shaklidagi bunday so'z kesimlik xususiyatini va bunday kesim qatnashadigan birinchi qism gapga tenglik xususiyatini yo'qotmaydi, faqat grammatik ma'nolarning ifodalanishida o'ziga xos umumlashish voqe bo'ladi. Asli **-b** ravishdoshi shaklidagi leksema ham boshqa ravishdosh yasovchilari shaklidagi leksemalar qatori hol vazifasida ishlatiladi. Sh.Rahmatullayevning "Hozirgi adabiy o'zbek tili" o'quv qo'llanmasida "boshqa ravishdosh yasovchilaridan farqli holda **-b** ravishdosh yasovchisida tobe holatdagi kesimni shakllantirish vazifasi ham mavjudligi, bunday shakllangan kesim ikkinchi gapshakldan oldin joylashganda qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplardan birining kesimi vazifasida kelishi, agar kesimi **-b** ravishdoshi shaklidagi qurilma ikkinchi qism tarkibiga kiritilsa, hollovchi vazifasida ishlatilgan bo'lishi" ta'kidlanadi (4.393): *Tabiat bahor kelib jonlandi* kabi. Bu kabi vaziyatda, albatta, o'zbek tilida gap bo'laklarining joylashish tartibi haqidagi qoidalarini inobatga olsak, vaziyatga to'g'ri baho bera olgan bo'lamiz. Shuni unutmagan holda, yuqorida Sh.Rahmatullayev qo'llanmasida berilgan **-b** ravishdosh hosil qiluvchi qo'shimchasi haqidagi fikrlarni o'rinli deb hisoblaymiz.

Tilimizda faqat qo'shma gap emas, balki tilshunoslikning boshqa sohaviy tarmoqlarida ham hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar talaygina.

Xulosa qilib aytganda, qo'shma gapni turlarga ajratish va turlarni guruhlarga muvofiqlashtirish xususida gap ketar ekan, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, bu kabi ishlarni amalga oshirishdan maqsad, birinchidan, tilshunoslik doirasidagi grammatik qoidalarda va ular orqali amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishi lozim, ikkinchidan, ta'lim-tarbiya sohasida o'quvchilar va mustaqil o'rganuvchilarga o'qish-o'qitish jarayonlarini yengillashtirishdan iborat bo'lishi lozim. Zeroki, bugungi zamonaviylashgan texnika asri ham aynan shunday sodda, oson ham qulay, ayniqsa, samarali o'rgatish va o'rganish tarafdoridir.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Mahmudov N. Ona tili, 9-sinf uchun darslik. T.: 2014
2. Rafiyev A. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: 2017
3. Nurmonov A. va boshqalar Akademik litsey uchun darslik. T.: 2015
4. Rahmatullayev Sh. "Hozirgi adabiy o'zbek tili". T.: 2006